

Junaydulloh Mahdum Hoziq: Xix Asr Markaziy Osiyo Adabiyoti Va Madaniyatidagi O'Rni

Shomurodova Munisa Sherali qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr o'zbek va tojik adabiyoti tarixida alohida o'rin tutgan mashhur shoir Junaydulloh Mahdum Hoziqning hayoti, ijodi va madaniy-ma'naviy merosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Hoziqning Hirotdagi bolalik yillari, Buxoroda olgan tahsili, ilmiy va adabiy faoliyati, turli hukmdorlar saroylaridagi mavqei, hamda uning insonparvarlik, adolatparvarlik, rostgo'ylik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlari chuqur tahlil qilinadi. Shoirning "Yusuf va Zulayho" kabi mashhur dostonlari, she'riy devonlari va g'azallari tarixiy manbalar asosida ilmiy yondashuv bilan o'rganilib, uning ijodi o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada shoirning Buxoro, Qo'qon va Xorazm kabi madaniy markazlardagi faoliyati, ijodiy uslubi, zamondoshlari bilan aloqalari, shuningdek, uning halokatiga sabab bo'lgan siyosiy voqealar ham keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari Hoziq ijodining faqat o'z davrida emas, balki bugungi kunda ham dolzarbligini, uning merosi ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etishini asoslab beradi. Ushbu maqola Hoziq shaxsiyati va ijodini qiyosiy-adabiy va tarixiy kontekstda o'rganishga qaratilgan bo'lib, kelajakda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Junaydulloh Mahdum Hoziq, XIX asr adabiyoti, o'zbek adabiyoti, tojik adabiyoti, Yusuf va Zulayho, insonparvarlik, haqqoniylik, Buxoro, Qo'qon, Xiva, adabiy meros

Kirish

XIX asrdagi o'zbek va tojik adabiyoti tarixida shoir Hoziq alohida o'rin tutadi. Uning chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan otashin she'rlari, yurak torlariga larza soluvchi nozik va ohangdor g'azallari hali hanuz sevib o'qiladi, turli yoqimli ohanglarga solib kuylanadi, avlodlardan avlodlarga mehr bilan saqlanib bizgacha yetib keldi. Muhammad Husayn Bulg'oriy tomonidan tuzilgan "Marsad-ut-tasnof" ("To'plamlarni o'rganish joyi") nomli natalogiyada O'rta Osiyo va Eron shoirlarining bir qancha asarlari bordir. Bular ichida Hoziqning tojik va o'zbek tillarida yozilgan 354 misra she'ri ham uchraydi. Hoziqning bir necha g'azal va qasidalar 1820-21 yillarda namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo'qonda tuzilgan "Majmuat-ush-shuaro" ("Shoirlar yig'ilishi") to'plamida ham uchraydi. Hoziqning tojik tilida yozgan yirik epik asari "Yusuf va Zulayho" dostonining yettita qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bu doston mashhur kalligraf Shomurod Kotib xati bilan Jomiy kulliyotining hoshiyasida 1905-yili Toshkent shahrida litografiya usulida bosilib chiqqandir. Hatto bu doston 1914-yili Lahor shahrida ham bosilgan.

So'zimiz boshida Hoziq shaxsiyatiga ham to'xtalib o'tsak, Shayxulislom Hirotiyning o'g'li bo'lgan Mirzo Junaydulloh Hoziq XVIII asrning 80-yillarida Hirotning Kalx nomli mahallasida dunyoga keladi. Junaydulloning otasi Islomshayx o'z shahrining intelligent tabaqalariga oid kishi bo'lgan. Bu haqida Fazliy "Majmuat-ush-shuaro" to'plamida shunday yozgan:

Chunayd on hakimi bilodi suxan,

Ki shahri Hirostast o'ro vatan.

Mudaqqiq ba tahqiqiilmu sifot,

¹ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2-kurs magistranti,
Shomurodovamunisa6@gmail.com



Buvayd ibn Islomshayxi Hirot.

Zi mulki Hirotast Hoziq bali,

Zi avlodi Islomshayxi vali.

Tarjimasi:

Ul Junayd so'z shaharlarining hakimi,

Chunki uning vatani Hirot shaharidir.

Hirotli Islomshayxning o'g'li, ilmlar,

sifatlarning mukammal bilimdonidir.

Hoziq Hirot mulkidandir,

Islomshayx valining avlodidandir.²

Shoirning bolalik yillari qanday o'tganligi, boshlang'ich ma'lumotni qayerdan olganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Lekin ilmga bo'lgan ishtiyoqi bois, u Buxoroga kelib, madrasada tahsil oladi. Din, tibbiyot, adabiyot ilmlarini puxta o'rganadi. O'zining sh'rlari, tabobatda erishgan natijalari bilan Buxoroda shuhrat qozonadi. Shu tariqa u o'zi tahsil olgan "Oliy" madrasada imom, keyin esa Amir Haydar (1800-1826-yillar) saroyida faoliyat yuritadi.³

Uning Buxoroga kelib, faoliyati haqida Qori Rahmatulloh Buxoriyning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat al-as'hob" ("Do'stlar haqida zikr qilingan sevimli sovg'a") aytib o'tadi. Junaydulloh Mahdum - Buxoroga kelib ko'pchilik tomonidan hurmatga sazovor bo'ldi, hatto unga ulug' va fozil insonlarning hasadlari keldi. Bu yerda muqarrar ilmlarni oldi, tabiblik ilmida ham mahorat qozonib, Hoziq(mohir tabib) taxallusini olgan. She'r ilmida bir qancha qasidalar yozgan.⁴

Hoziq juda to'g'ri so'z, qat'iyatli, haqqoniyatchi va yuksak insonparvar shoir edi. U o'zi yashagan zamonda hukmron bo'lgan zulm va vaxshatga qarshi keskin norozilik bildirib, hatto g'azallar ham yozgan edi. Hoziq Buxoroda yashagan vaqtida fisq-u fasodlar kundan sayin ko'payib boradi. Hatto ba'zi shoirlar Hoziqni masxara qilib, hajviy she'rlar yozishgan. Oxiri Amir Haydar saroyida maishiy tiyiqsizlikning avj olishi va saroy o'yinlari sabab Buxoroni tark etadi. 1820-yillarda Qo'qonga keladi. Bu paytda madaniyat va san'atga e'tibori kuchli bo'lgan Amir Umarxon hukmdorlik qilar edi. Umarxon Hoziqni doimo maslahatgo'y sifatida hurmat qilgan, uning yashashiga ham ijoniy qaragan. Shoir bu paytda o'zining Sharq afsonasi syujetidagi "Yusuf va Zulayho" asarini yozib, xonga taqdim qiladi. Ammo 1822-yil Amir Umarxon vafotidan keyin, Qo'qon saroyini tark etadi. Xalq orasida tabiblik bilan mashg'ul bo'lib yuradi.

1826-yilda Qo'qon va Buxoro orasida sargardon bo'lib yurganini, bilim va tafakkurini eshitgan Xiva xoni Olloqulixon Hoziqni Xorazmga taklif etadi. Bu paytda Xorazmda Munis Xorazmiy, Ogahiy kabi yirik shoirlar va olimlar boshchiligidagi adabiy va ilmiy guruhlar avj olgan edi. Xorazm shoirlarining ko'p devonlari to'plangan, she'rxonlik, musiqashunoslik ma'lum darajada rivoj topgan edi. Hoziq ana shunday ilmiy va adabiy guruhlarda yaqindan qatnashadi, uning ko'p g'azal va muxammaslari bayoz va to'plamlarda yoziladi. Xorazm xoni Olloqulixon Munis vafoti sababli tugallanmay qolgan "Ravzat us-safo"ning tarjimasini davom ettirishni Hoziqqa topshiradi. Shundan ma'lum bo'ladiki, Hoziqning qobiliyati va iste'dodi Xorazm shoirlari o'rtasida e'tirof etilgan va o'zining ilmiy va badiiy mahorati bilan ancha obro'ga ega bo'lgan. Shuning uchun ham, "Ravzat us-safo"ning tarjimasi kabi muhim va mas'uliyatli ish unga topshirilgan.

² Qayumov Aziz. Hoziq. O'zfanakadnashr, 1957. 8-bet

³ Educational Research in Universal Sciences. "Amir Nasrulloh va rostgo'y Hoziq munosabatlari" maqola. 289-bet

⁴ A.Irisov, A.Nosirov, I.Nizomiddinov - O'rta osiyolik qirg' olim. T. "O'zbekiston SSR fanlar Akademiyasi" nashriyoti 1961-yil. 94-bet



Biroq Olloqulixon qurdirayotgan hammom tuzilishini tanqid qiladi va bu xon va shoir munosabatlariga soya soladi. Ya'ni Hoziq hech kimdan hayiqmas, o'z fikri va mulohazasini bildirishga juda ham dovyurak bo'lgan. Xon hammom qurdirgan va bu voqea har yoqqa ovoza bo'lgan. Xonning ko'p maddohlari uni ko'klarga ko'tarib maqtaganlar, hammomni xonning lutf va karam nishonasi deb ta'riflashgan. Xon taklifiga ko'ra, Hoziq ham bu hammomni ko'radi va unga o'z fikrini ochiq-oydin bildiradi: Hammom yaxshi, ammo unga tushgan odam o'zi bilan chirog', oyoq kiyimi, issiq to'n va Qur'on olib kirishi kerak. Chunki chirog' hammomni yoritishga, oyoq kiyimi yiqilib tushmaslikka, issiq to'n sovuq yemaslikka, Qur'on ikkinchi qayta kirmaslik uchun qasam ichishga kerak bo'ladi.⁵

Bu tanqid oqibatida Xiva xoni saroyini ham tark etadi. Qo'qonga ketadi. Bu yerdagi olim va shoirlar orasida ijod qilib, yangi badiiy asarlar yaratadi. Bu paytda uning ijodi kamolotga yetishgan, uning bir qancha lirik she'rlari muhabbat bilan o'qilar va musiqaga solib kuylanar edi:

Beruhatchi boz on ki gul uftod dar gulzor zor,

G'uncha gardidast dur az labi xunxor xor.

Tahnagixoi moro nashkast chuz la'li labash,

Seb osibi jigar gardid obi nor nor...

Tarjimasi:

Sening ruhing bo'lmasa, gulzorda gulyiqilib zor,

G'uncha u qon to'la labdan xor bo'lib uzoqlashadi.

Mening tashnaliklarimni la'l labidan boshqa narsa ketkizmadi,

Olma jigar uchun azob, anorning suvi esa olov bo'lgan edi.

Bu g'azal to hozirgacha qo'llanilib keladi. Uni mashhur o'zbek xalq hofizi Mullo To'ychi Toshmuhammedov o'z repertuariga kiritgan va shashmaqomning savti bayot kuyida ijro etgan.⁶

Shoir Qo'qonda ijod qilib yurgan bir vaqtda Amir Nasrulloxon u yerga yurish qiladi. Va Qo'qonni o'ziga tobe qilgandan so'ng, o'zi bilan qanchadan qancha hunarmand olimlarni asir sifatida olib ketadi. Asirlar ichida mavlono Hoziq ham bor edi. Mushrif qalamiga mansub "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" asarining Hoziq qatli voqeasi deb nomlangan faslida Amirning g'alaba bilan Buxoroga kirib kelishi juda ajoyib tarzda tasvirlangan. Amir Nasrulloh Buxoroga yaqinlashib qolgach o'z nadimi hisoblangan Junaydulloh Hoziqqa g'alaba tugagan o'z safari to'g'risida bir fard aytishini so'raydi. Hoziq shu vaziyatda ham, haqiqatparvarlikni tanlaydi. U hatto, Amir Nasrulloxondan, xalq o'rtasida "qassob" laqabini olgan zolim hukmdorga ham haq gapni ayta oldi. Madaminxonni, onasi shoira Nodirabegimni o'ldirtirib yuborib, xonlikni talon-taroj etganida uning qilmishlariga bag'ishlab:

Buridi bar qadi hud az malomat,

Libose to ba domoni qiyomat, -

deya fard aytadi. Bu bayt xalq o'rtasida shunchalik mashhur bo'ladiki, hatto, savodsiz kishilar ham yoddan aytib yurishadi. Fard mazmuni shunday edi: "O'z qaddinga lanatlardan shunday bir libos tikib kiydingki, U libos ustingda qiyomatgacha qoladi".

Buxoroga asir sifatida olib kelingan Hoziq bu yerda bir kun ham yashamasdan amirning qahridan qo'rqib, do'stlarining taklifiga ko'ra Shahrisabzga ketishga majbur bo'ladi. Hoziq Shahrisabz hokimi Xo'jaquli parvonachi panohida yashay boshlaydi. Amir Nasrulloh Hoziqning aybidan o'tganligi va Buxoroga qaytishi mumkinligi to'g'risida uning yaqinlari va o'g'li Mirzo Muhtashamga 3 bora maktub yozadi. Ammo Nasrullohning fe'lini yaxshi bilgan Hoziq rozi bo'lmaydi va javoban bir fard yo'llaydi:

Chun huzuram sababi ranjishi tabg'iat gardid,

⁵ Qayumov A. Hoziq O'zfanakadnashr, 1957. 15-bet

⁶ Qayumov A. Hoziq. O'zfanakadnashr, 1957. 18-bet



Megurezam, ki malulat makunam bori digar.

Mazmuni: "Huzuringda bo'lishim tabiatning ranjishiga sabab bo'ladi. Sanga yana malol keladigan ish qilmay deb nari yuribman" - degan mazmunda. Uning javobi, amirning battar jazavasiga sabab bo'ladi. Shahrisabzga bir o'g'rini zindondan chiqarib, unga Hoziqni o'ldirish vazifasini yuklaydi. Hakimxon to'ra "Muntaxab ut-tavorix" asarida "Dushaboy va unga qo'shilgan uchta kallakesar to'rt bekok kofir kishi-o'g'rilar vaqtini g'animat bilib, sahar vaqtida shanba ertasi Shahrisabza kelib, uyning eshigini sindirib, mavlono Hoziq yotgan joyga bostirib kirdilar", deya voqea tafsilotini yozadilar. Shu tariqa to'rttala o'g'rilar Hoziqning aziz boshini tanasidan judo qildilar.

Ma'shum voqeadan xabar topgan Xo'jaquli parvonachi, Xoji Hakimxon to'ralar ahli olomon bilan marhumni Kitob bekligining Oxund mozoriga dafn etishadi. Shuning uchun ham fuzalo kishilar uni shahid deb biladilar - deydi "G'aroyibi sipoh" asarining muallifi Tojir va quyidagi mashhur baytni keltiradi:

Men na chalajon bo'ldimu, na ovlanganqatorda bo'ldim.

Qornimda yer ham bo'yalmadi, biror pok etakni ham bo'yamadim.⁷

Garchi Junaydulloh Mahdum Hoziq 1843-yil yanvarda suiqasd qurboni bo'lgan bo'lsa ham, "voqea Islom", "Tahqiq-ul kafonad", "Yusuf va Zulayho" kabi tabobat va adabiyotga oid asarlar va har qanday vaziyat rost so'zlashi, o'z davrining donishmandi sifatida tarixga muhrlandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Junaydulloh Mahdum Hoziq XIX asr o'zbek va tojik adabiyoti tarixida o'zining noyob iste'dodi, insonparvarlik g'oyalari va adolatparvarligi bilan alohida o'rin egallagan shoir sifatida e'tirof etiladi. Uning she'rlari nafaqat badiiy jihatdan, balki ijtimoiy va axloqiy mazmun jihatidan ham ahamiyatli bo'lib, o'z zamonasidagi zulm, adolatsizlik, fisq-u fasodga qarshi keskin norozilik ruhini ifodalagan. Hoziqning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlari, g'azallari, qasidaları va qoldirgan adabiy merosi bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yosh avlod tarbiyasida ibrat manbai bo'lib kelmoqda. Shoirning rostgo'yli, qat'iyati, siyosiy hukmdorlarga ham haqqoniy so'z ayta olgan mardligi uning shaxsiyatini yanada ulug'laydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Hoziq o'z zamonasida nafaqat shoir, balki tabib, donishmand, islohotchi sifatida ham hurmatga sazovor bo'lgan. Kelgusida uning adabiy merosini yanada chuqurroq o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va xalqaro ilmiy maydonga olib chiqish O'zbekiston va tojikiston adabiyotshunosligida dolzarb yo'nalish bo'lib qoladi. Shu sababli Hoziq ijodi faqat tarixiy qadriyat emas, balki bugungi zamon uchun ham ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Husayn Bulg'oriy, Marsad-ut-tasvif. O'rta Osiyo va Eron shoirlarining to'plamlari haqida natatologiya, Toshkent, 19-asr.
2. Fazliy Namangoni, Majmuat-ush-shuaro. Qo'qon adabiy majmuasi, 1820–1821.
3. Qori Rahmatulloh Buxoriy, Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat al-as'hob. Do'stlar haqida zikr qilingan sevimli sovg'a, Buxoro, 19-asr.
4. Hakimxon To'ra, Muntaxab ut-tavorix. Tarixiy voqealar to'plami, Qo'qon, 19-asr.
5. Tojir, G'aroyibi sipoh. Harbiy va siyosiy voqealar haqida, Xiva, 19-asr.
6. A. S. Sadullayev, O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 1995.
7. H. Hasanov, O'zbek she'riyati va tarixiy jarayonlar. Toshkent: O'qituvchi, 2001.
8. G'. Qodirov, O'zbek klassik adabiyoti namunalarida insonparvarlik g'oyalari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.

⁷ Sh.Vohidov-Qo'qon xonligi tarixi(xonlik tarixi manbalarda). 115-bet.



9. I. Karimov, Sharq mumtoz adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o‘rni. Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
10. D. Mirzaahmedov, Buxoro, Qo‘qon, Xiva xonliklari tarixida adabiy muhit. Toshkent: Fan, 2018.
11. A. Madrahimov, Yusuf va Zulayho: janr, syujet va badiiy xususiyatlar. Toshkent: Ilm Ziya, 2021.

